

OMMAVIY OFERTA

“Omadli Marafon” Mastercard rag‘batlantiruvchi aksiyasini o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Mazkur ommaviy oferta (keyingi o‘rinlarda – “Oferta”/“Qoidalar”) “Omadli Marafon” rag‘batlantiruvchi aksiyasini (keyingi o‘rinlarda – “Aksiya”) o‘tkazish tartibi, shartlari va qoidalarini belgilaydi.
2. Aksiyaning tashkilotchisi “Asakabank” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda – “Bank”, “Tashkilotchi”) hisoblanadi.
3. Aksiya O‘zbekiston Respublikasi hududida naqd pulsiz to‘lovlardan foydalanish qulayligini oshirish, mijozlar sodiqligini oshirish va Mastercard kartalarining yangi foydalanuvchilarini jalb etish, naqd pulsiz hisob-kitoblarni rag‘batlantirish, Bankning karta mahsulotlarini ilgari surish hamda raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish maqsadida “Asakabank” AJ tomonidan emissiya qilingan Mastercard bank kartalari egalari bo‘lgan jismoniy shaxslar o‘rtasida o‘tkaziladi.
4. Mazkur Aksiya Bankning marketing tadbiri hisoblanadi va lotereya, qimor o‘yini yoki tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yin hisoblanmaydi.
5. G‘oliblarni aniqlash Aksiya shartlarini bajargan ishtirokchilar orasidan tasodifiy tanlash yo‘li bilan amalga oshiriladi. Bunda Aksiyada ishtirok etish:
 - ishtirokchilardan Aksiyada qatnashish uchun qandaydir qo‘shimcha maxsus to‘lov kiritishni talab qilmaydi;
 - alohida to‘lov evaziga ishtirok etish huquqini sotib olish bilan bog‘liq emas;
 - ishtirokchilar uchun mulkiy xavflarni yuzaga keltirmaydi.
6. Aksiyada ishtirok etish faqat mijozning xohishiga ko‘ra amalga oshiriladi va Ishtirokchining mazkur Qoidalariga to‘liq roziligini anglatadi.
7. Mazkur Oferta Aksiyada ishtirok etish, g‘oliblarni aniqlash, sovrinlarni taqdim etish, shuningdek ishtirokchilar va Bankning huquq hamda majburiyatlarini tartibga soluvchi rasmiy hujjat hisoblanadi.

8. Oferta matni Bankning rasmiy veb-saytida va Bankning mobil ilovasida rus va o'zbek tillarida joylashtiriladi.
9. Aksiyaning reklama materiallari bilan mazkur Oferta o'rtasida tafovutlar yuzaga kelgan taqdirda, mazkur Oferta qoidalarini qo'llaniladi.
10. Aksiya tashkilotchisi: "Asakabank" AJ STIR: 201 589 828 Yuridik manzil: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Yangi Toshkent ko'chasi, Yangi Toshkent tor ko'chasi, 1-uy.
11. Bank Aksiyaning o'tkazishga umumiy rahbarlik qilish, uni tashkil etish va nazorat qilishni amalga oshiradi, shuningdek mazkur Oferta bilan belgilangan shartlarga rioya etilishi uchun javobgar hisoblanadi.
12. Bankning Kontakt-markazi: O'zbekiston Respublikasi hududidan qo'ng'iroqlar uchun qisqa raqam – 1152.
13. Aksiya O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq o'tkaziladi.

II. AKSIYANI O'TKAZISH MUDDATI VA JOYI

14. Aksiya O'zbekiston Respublikasining butun hududida o'tkaziladi.
15. Aksiyaning o'tkazish muddati – 2026-yil 18-avgustdan 2026-yil 1-noyabrgacha (shu jumladan).
16. Aksiya yakunlari 2026-yil 6-noyabrda chiqariladi.
17. Ko'rsatilgan davrda mazkur Qoidalar shartlariga javob beradigan Bankning barcha mijozlari Aksiyada ishtirok etishlari mumkin.
18. Sovrinlarni o'ynash quyidagi jadval asosida amalga oshiriladi:

№	Bosqich	Yutuqli o'yin o'tkaziladigan sana	Ishtirok etish davri
1	Kunlik o'yin (4 kun)	19, 20,21 va 24.08.2026	18.08.2026 – 23.08.2026
2	1-haftalik o'yin	02.09.2026	24.08.2026 – 30.08.2026
3	2-haftalik o'yin	09.09.2026	31.08.2026 – 06.09.2026
4	3-haftalik o'yin	16.09.2026	07.09.2026 – 13.09.2026
5	4-haftalik o'yin	23.09.2026	14.09.2026 – 20.09.2026

6	5-haftalik o‘yin	30.09.2026	21.09.2026 – 27.09.2026
7	6-haftalik o‘yin	07.10.2026	28.09.2026 – 04.10.2026
8	7-haftalik o‘yin	14.10.2026	05.10.2026 – 11.10.2026
9	8-haftalik o‘yin	21.10.2026	12.10.2026 – 18.10.2026
10	9-haftalik o‘yin	28.10.2026	19.10.2026 – 25.10.2026
11	10-haftalik o‘yin va avtomobil o‘yni	06.11.2026	26.10.2026 – 01.11.206

19. G‘oliblarni aniqlash Bankning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida (Instagram) jonli efirda tegishli Ishtirok etish davriga kiruvchi ishtirokchilar orasidan tasodifiy (random) tanlash yo‘li bilan, tasodifiy natijalarni generatsiya qilishni ta‘minlovchi mustaqil randomayzer-servislardan (shu jumladan <https://random.org> yoki boshqa o‘xshash servislari) foydalangan holda amalga oshiriladi. Har bir yutuqli o‘yin uchun ishtirokchilar ro‘yxati Bank tomonidan ishtirok etish shartlariga javob beradigan mijozlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar asosida shakllantiriladi.

20. O‘zgarishlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar Bank tomonidan mijozlar uchun mavjud bo‘lgan axborot kanallarida joylashtiriladi.

III. AKSIYANI O‘TKAZISH SHARTLARI VA TARTIBI

21. Aksiyada quyidagi shartlarning barchasiga bir vaqtning o‘zida javob beradigan “Asakabank” AJ mijozlari bo‘lgan jismoniy shaxslar ishtirok etishlari mumkin:

- 18 yoshga to‘lgan;
- O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari yoxud O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasiga ega bo‘lgan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar hamda O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari bo‘lishlari;
- “Asakabank” AJ tomonidan emissiya qilingan amaldagi Mastercard kartasi egasi;
- Aksiya o‘tkaziladigan davr mobaynida mazkur Oferta mezonlari va shartlariga mos keladigan tovarlar va xizmatlar uchun to‘lov operatsiyalarini amalga oshirgan;

- Bankning mobil ilovasida mazkur Ofertani aksept qilish yoki Bankning Bank xizmatlari markazida ariza imzolash orqali O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq shaxsga doir ma’lumotlarni qayta ishlashga so‘zsiz rozilik bergan.

Bank xodimlari, shuningdek ularning yaqin qarindoshlari (er/xotin, ota-ona, farzandlar, aka-uka va opa-singillar) Aksiyada ishtirok eta olmaydi.

22. Mazkur Aksiya doirasida quyidagi operatsiyalar hisobga olinadi:

- Aksiya o‘tkaziladigan davrda (15-band) “Asakabank” AJ tomonidan emissiya qilingan Mastercard karta orqali POS/EPOS terminallari (mahalliy/xorijdagi) orqali tovarlar va xizmatlar uchun amalga oshirilgan to‘lovlar;
- faqat muvaffaqiyatli yakunlangan, pul mablag‘lari yakuniy hisobdan chiqarilgan va Aksiya ishtirokchilari ro‘yxati shakllantiriladigan paytda to‘lov tizimida operatsiyani qayta ishlash yakunlangan operatsiyalar hisobga olinadi;
- ishtirok etish uchun bitta operatsiyaning minimal summasi: 100 000 (bir yuz ming) so‘m;
- O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida yoki xorijiy internet-resurslarda ishtirokchi tomonidan chet el valyutasida tranzaksiyalar amalga oshirilganda, 100 000 so‘mlik minimal chegaraga muvofiqligini tekshirish uchun tranzaksiya summasi Bankda moliyaviy kliring (operatsiyani qayta ishlash) amalga oshirilgan sanada O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan rasmiy kurs bo‘yicha milliy valyutaga (so‘mga) qayta hisoblanadi.

23. Aksiyani o‘tkazish doirasida hisobga olinmaydigan operatsiyalar (sovrinlar yutuqli o‘yinida ishtirokchilar ro‘yxati shakllantiriladigan paytda):

quyidagi operatsiyalar (tranzaksiyalar) Aksiyada ishtirok etishga qabul qilinmaydi:

- mijozning o‘z hisobvaraqlari/kartalari o‘rtasidagi o‘tkazmalar
- naqd pul yechib olish/kiritish operatsiyalari
- cash advance operatsiyalari
- quasi-cash operatsiyalari
- elektron hamyonlarni to‘ldirish operatsiyalari
- sayohat cheklarining xaridi bo‘yicha operatsiyalar
- bukmekerlik xizmatlarini xarid qilish bo‘yicha operatsiyalar

- bekor qilingan operatsiyalar
- pul mablag'larini (to'lovlarni) qaytarish operatsiyalari
- chargeback/reversal operatsiyalari
- xato deb topilgan operatsiyalar
- P2P operatsiyalari
- MCC 6010, 6011, 6012 bo'yicha operatsiyalar
- Asakabank mobil ilovasi orqali amalga oshirilgan operatsiyalar
- bank kartasidan foydalanish shartlarini buzgan holda amalga oshirilgan operatsiyalar
- firibgarlik operatsiyalari, har qanday shubhali operatsiyalar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 3513-son va 3759-son Nizomlari talablariga asosan Bankning antifrod tizimlari tomonidan bloklangan tranzaksiyalar
- valyuta konvertatsiyasi operatsiyalari
- bank kassalari orqali amalga oshirilgan operatsiyalar
- tovarlar va xizmatlar uchun xaridlar hisoblanmaydigan boshqa barcha operatsiyalar.

24. Bank O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qonunchilik va normativ-huquqiy hujjatlari talablaridan hamda xatarlarni boshqarish bo'yicha ichki tartib-taomillardan kelib chiqib, shubhali faollik alomatlari mavjudligini mustaqil ravishda belgilaydi.

25. Quyidagilar aniqlangan taqdirda Bank ishtirokchini Aksiyadan chetlatish yoki uning ishtiroki natijalarini bekor qilish huquqiga ega:

- Aksiya shartlarini buzish;
- mijoz tomonidan noto'g'ri ma'lumot taqdim etilishi;
- tizimning texnik xatolaridan foydalanish;
- soxta yoki sun'iy ravishda yaratilgan operatsiyalarni amalga oshirish;
- asossiz ustunlikka ega bo'lishga qaratilgan harakatlarni amalga oshirish.

26. Shubhalar aniqlangan taqdirda Bank sovrin topshirilgunga qadar qo'shimcha tekshiruv o'tkazish huquqiga ega.

27. Tekshiruv o'tkazilishi Bankning o'z majburiyatlarini bajarishdan bosh tortishi hisoblanmaydi va faqat Aksiya ishtirokchilarini himoya qilish hamda firibgarlik holatlarining oldini olish maqsadida amalga oshiriladi.

IV. SOVRINLARNI O'YNASH MEXANIZMI VA AKSIYA G'OLIBLARINI ANIQLASH TARTIBI

- 28.** Aksiya g'oliblarini aniqlash mazkur Oferta shartlarini bajargan ishtirokchilar orasidan tasodifiy tanlash yo'li bilan amalga oshiriladi.
- 29.** Ishtirokchining imkoniyatlari soni u tomonidan Aksiya shartlariga mos keladigan amalga oshirilgan operatsiyalar soniga bog'liq.
- 30.** Aksiya muayyan bosqichi shartlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, ishtirok etish shartlariga mos keladigan har bir operatsiya ishtirokchiga sovrin olish uchun alohida imkoniyat beradi.
- 31.** Ishtirokchilar ro'yxatini shakllantirish Bankning axborot tizimlari tomonidan bank tizimlari ma'lumotlari asosida avtomatik ravishda amalga oshiriladi.
- 32.** Bank ishtirokchilar va ro'yxatlarni shakllantirish natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarning O'zbekiston Respublikasi axborot xavfsizligi va shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi qonunchiligi talablariga muvofiq saqlanishini ta'minlaydi.
- 33.** Aksiya bosqichma-bosqich o'tkaziladi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Aksiya sovrinlarini o'ynash bosqichlari

1. Mazkur Aksiya shartlariga mos keladigan 100 000 (bir yuz ming) so'm yoki undan ortiq summadagi tovarlar va/yoki xizmatlar uchun har bir muvaffaqiyatli amalga oshirilgan naqd pulsiz to'lov operatsiyasi uchun Ishtirokchiga chiptalar beriladi.
2. Chiptalar real vaqt rejimida berilmaydi. Kalendar kuni davomida amalga oshirilgan operatsiyalar uchun chiptalar tegishli operatsiyalar qayta ishlangandan keyingi navbatdagi bank ish kunidan kechiktirmay mobil ilovada aks ettiriladi.
3. Juma, shanba va yakshanba kunlari amalga oshirilgan operatsiyalar uchun chiptalar muvaffaqiyatli qayta ishlangan taqdirda, keyingi ish haftasining navbatdagi bank ish kunidan kechiktirmay hisoblanadi va mobil ilovada aks ettiriladi.
4. Agar tranzaksiya Aksiyaning bir bosqichi davomida amalga oshirilgan bo'lsa, biroq uning qayta ishlanishi (kliringi) mazkur bosqich yakunlanganidan keyin tugallangan bo'lsa, bunday tranzaksiya tegishli bosqich yakunlarini aniqlashda hisobga olinmaydi va Aksiyaning boshqa

shartlariga muvofiq bo'lgan taqdirda, Aksiyaning keyingi bosqichida hisobga olinishi mumkin.

5. Agar tranzaksiyaning muvaffaqiyatli qayta ishlanganligi (kliringdan o'tganligi) to'g'risidagi ma'lumot Aksiya o'tkazilish muddati yakunlangunga qadar Tashkilotchiga kelib tushmagan bo'lsa, bunday tranzaksiya chiptalar sonini aniqlashda hisobga olinmaydi hamda Mijozga chipta olish yoki Aksiya doirasidagi o'ynashda boshqa tarzda ishtirok etish huquqini bermaydi. Aksiya maqsadlari uchun tranzaksiyani hisobga olish sanasi Tashkilotchi tomonidan uning muvaffaqiyatli qayta ishlanganligi (kliringdan o'tganligi) to'g'risidagi ma'lumot olingan sana hisoblanadi.
6. Aksiyaning bir bosqichi doirasida muvaffaqiyatli qayta ishlangan va hisobga olingan tranzaksiyalar keyingi bosqichga o'tkazilmaydi hamda tegishli bosqich uchun chiptalar sonini aniqlashda takroran hisobga olinmaydi. Shu bilan birga, **umumiy chiptalar sonini jamlash va Aksiya tomonidan belgilangan avtomobilning yakuniy o'yinida ishtirok etish uchun chipta olish chegarasiga erishish maqsadida**, Ishtirokchining Aksiya o'tkaziladigan butun davr mobaynida muvaffaqiyatli qayta ishlangan barcha tranzaksiyalari, ushbu tranzaksiyalar qaysi bosqichda amalga oshirilgani va hisobga olinganidan qat'i nazar, hisobga olinadi.
7. Chiptalarning mobil ilovada aks ettirilishi axborot xususiyatiga ega. Operatsiyalarni qayta ishlashda texnik kechikishlar yuzaga kelgan taqdirda, chiptalarni aks ettirish muddatlari o'zgarishi mumkin, bunda bunday kechikishlar Ishtirokchining Aksiya shartlariga mos operatsiyalar uchun chiptalar olish huquqiga ta'sir qilmaydi.

1-bosqich – “Omadli Start”

1. 1-bosqichning tranzaksiyalarni hisobga olish va o'tkazish davri: Aksiyaning 1-kunidan 6-kunigacha.
2. **Ishtirok etish shartlari:** Joriy kunning sovrinli o'yinida oldingi to'liq sutka davomida, ya'ni Toshkent vaqti bilan **00:00:00 dan 23:59:59 gacha (UTC+5) bo'lgan davrda, 100 000 so'm va undan ortiq** miqdorda tranzaksiyani muvaffaqiyatli amalga oshirgan karta egalari ishtirok etadilar. Bunda mazkur tranzaksiyaning muvaffaqiyatli qayta ishlanganligi (kliringdan o'tganligi)

to'g'risidagi ma'lumot Bankning avtomatlashtirilgan bank tizimiga Aksiya o'tkazilayotgan davrda kelib tushgan bo'lishi shart.

3. G'oliblarni aniqlash tartibi: har kuni hisobot sutkasidan keyingi kuni Bank oldingi sutkaning 00:00:00 dan 23:59:59 gacha bo'lgan davrida Bankning ABTda qayd etilgan tranzaksiyalari mavjud bo'lgan ishtirokchilar reyestrini avtomatik ravishda shakllantiradi. Shakllantirilgan reyestrda real vaqt rejimida mustaqil elektron tasodifiy sonlar generatori yordamida kunning 4 (to'rt) nafar noyob g'olibi tasodifiy tanlanadi. Natijalarni qayd etish tartibi va kundalik yutuqli o'yinning aniq vaqti Bankning rasmiy resurslarida e'lon qilinadi.
4. Ishtirokchilar imkoniyatlarini aniqlash qoidasi: Aksiya mezonlariga mos keladigan va belgilangan vaqt oralig'ida amalga oshirilgan 100 000 so'mdan boshlab har bir alohida muvaffaqiyatli tranzaksiya ishtirokchilar reyestriga mustaqil noyob tartib raqami (ID-kod) bilan kiritiladi va ishtirokchiga bitta imkoniyat beradi. Shu tariqa, ishtirokchi tomonidan bir nechta tranzaksiyalarni amalga oshirish reyestrda uning noyob raqamlari, ya'ni imkoniyatlari sonini oshiradi va tasodifiy tanlov jarayonida yutishning matematik ehtimolini mutanosib ravishda oshiradi.

1-bosqich "Omadli Start"ning sovrin jamg'armasi: har biri 2 000 000 (ikki million) so'mdan bo'lgan 16 (o'n olti) ta pul mukofoti. Ushbu bosqich sovrinlarining umumiy qiymati: 32 000 000 (o'ttiz ikki million) so'm.*

2-bosqich – Haftalik yutuqli o'yinlar

1. 2-bosqichning tranzaksiyalarni o'tkazish va hisobga olish davri: 2-bosqich doirasida **10 (o'n) ta haftalik o'yin** o'tkaziladi. Har bir o'yin uchun ishtirok etish davrlari mazkur Qoidalarda belgilangan jadvalga muvofiq kalendar haftalari asosida aniqlanadi va **2026-yil 24-avgustdan 2026-yil 1-noyabrgacha, shu jumladan**, davom etadi.
2. Haftalik yutuqli o'yinlar uchun tranzaksiyalarni hisobga olish Toshkent vaqti bilan (UTC+5) Aksiyaning 3-haftasi birinchi kunining soat 00:00:00 dan boshlanadi va 12-haftaning oxirgi kunining soat 23:59:59 da yakunlanadi.
3. Ishtirok etish shartlari: har hafta Mastercard kartasi orqali xaridlar uchun to'lovlarni amalga oshirgan mijozlar orasida oldingi haftadagi tranzaksiyalar bo'yicha yakunlar chiqariladi.

4. Ishtirok etish tartibi va imkoniyatlar: 100 000 soʻmdan boshlab Aksiya shartlariga mos keladigan har bir tranzaksiyaga avtomatik ravishda bitta chipta beriladi. Tranzaksiyalar qancha koʻp boʻlsa – chiptalar shuncha koʻp va yutish imkoniyati shuncha yuqori.
5. Chiptalar soni Bankning axborot tizimlari tomonidan avtomatik ravishda aniqlanadi.
6. Qayta gʻolib boʻlishni cheklash: ayni bir ishtirokchi (karta egasi/noyob ID) bir yutuqli oʻyin haftasi doirasida bir nechta sovrin yutishi mumkin emas. Agar tasodifiy sonlar generatori bir hafta ichida ayni ishtirokchini qayta tanlasa, darhol qayta yutuqli oʻyin oʻtkaziladi.

2-bosqich sovrin jamgʻarmasi: har hafta 2 (ikki) ta, har biri 10 000 000 (oʻn million) soʻmlik pul mukofoti va 1 (bir) dona 10 000 000 (oʻn million) soʻmlik turistik sayohat sertifikat oʻynaladi.*

Jami 2-bosqich boʻyicha: 10 (oʻn) kalendar hafta davomida 20 (yigirma) ta pul mukofoti va 10 (oʻn) ta turistik sertifikat oʻynaladi.

Ushbu bosqich sovrinlarining umumiy qiymati: 300 000 000 (uch yuz million) soʻm.

3-bosqich – Aksiyaning Bosh sovrini – avtomobil (final) yutuqli oʻyini

- Aksiyaning Bosh sovrini: BYD YUAN UP DM-I110KM Flagship avtomobili*.
- Bosh sovrin gʻolibi butun Aksiya yakunlari boʻyicha aniqlanadi.
- Bosh sovrinni oʻynashda ishtirok etish uchun Aksiya oʻtkaziladigan davr mobaynida ishtirokchining umumiy xarajatlari hajmidan kelib chiqib qoʻshimcha “chiptalar” shakllantiriladi.
- Tegishli operatsiyalarning jami hajmidagi har 2 000 000 (ikki million) soʻm uchun 1 ta qoʻshimcha “chipta” shakllantiriladi.
- Bosh sovrin (avtomobil) uchun “chiptalar”ni shakllantirish tartibi:
 - Xarajatlar jamgʻarmasi: Bank Aksiya oʻtkaziladigan butun davr mobaynida Mastercard kartasi boʻyicha barcha mos operatsiyalaringizni avtomatik ravishda jamlaydi.
 - 2 000 000 soʻmlik qadam = 1 ta chipta: umumiy xarajatlaringiz summasidagi har toʻliq 2 000 000 soʻm uchun final yutuqli oʻyiniga avtomatik ravishda 1 ta “chipta” beriladi.

- Bu qanday ishlaydi:

- butun Aksiya davomida 2 000 000 so‘m sarfladingiz – 1 ta “chipta” oldingiz;
- butun Aksiya davomida 4 000 000 so‘m sarfladingiz – 2 ta “chipta” oldingiz;
- butun Aksiya davomida 6 000 000 so‘m sarfladingiz – 3 ta “chipta” oldingiz va hokazo.

- Ko‘proq xarajat – yuqoriroq imkoniyat: bitta mijoz uchun “chiptalar”ning maksimal soni cheklanmagan. Aksiya davrida Mastercard kartasi bo‘yicha xaridlaringizning umumiy summasi qancha katta bo‘lsa, ishtirokchi nomidan tasodifiy sonlar generatoriga shuncha ko‘p “chipta” tushadi va Bosh sovrin – avtomobilni yutish ehtimoli shuncha yuqori bo‘ladi.

** Tashkilotchi Aksiyaning tegishli bosqichi g‘oliblari aniqlanguniga qadar istalgan vaqtda sovrinlar ro‘yxati, ularning qiymati, soni, shuningdek sovrin jamg‘armasining umumiy miqdorini qayta ko‘rib chiqish huquqini o‘zida saqlab qoladi. Tegishli o‘zgarishlar “Asakabank” AJning rasmiy resurslarida majburiy ravishda e‘lon qilinadi.*

Yutuqli o‘yinlarni o‘tkazish

- Barcha yutuqli o‘yinlar mazkur Oferta 18-bandida ko‘rsatilgan sanalarda Bankning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida (xususan, Instagram’da) jonli efirda o‘tkaziladi.
- Har bir yutuqli o‘yin uchun ishtirokchilar ro‘yxati Bank tomonidan avtomatlashtirilgan bank tizimlari (ABT) ma’lumotlari asosida, mijozlarning axborot xavfsizligi va maxfiy ma’lumotlarini himoya qilish talablariga rioya qilgan holda avtomatik ravishda shakllantiriladi.
- G‘oliblarni aniqlash uchun mustaqil tasodifiy sonlar generatoridan (masalan, random.org va boshqalar) yoki Bank tomonidan tanlangan boshqa dasturiy yechimdan foydalanilishi mumkin.
- Yutuqli o‘yin natijalari Bankning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida jonli efirda namoyish etilishi mumkin.
- G‘oliblar qo‘shimcha ravishda Bank tomonidan mavjud aloqa kanallari orqali, jumladan:
 - mobil ilova;
 - SMS-xabar;

- telefon qo'ng'irog'i;
- mijoz Bankda xizmat ko'rsatish vaqtida ko'rsatgan boshqa aloqa kanallari orqali xabardor qilinadi.
- Bank quyidagi sabablar tufayli ishtirokchini xabardor qilishning imkoni bo'lmaganligi uchun javobgar emas:
 - mijoz tomonidan aloqa ma'lumotlarining o'zgartirilishi;
 - telefonga kirish imkonining mavjud emasligi;
 - aloqa operatorlarining texnik cheklovlari;
 - uchinchi shaxslarning harakatlari;
 - Bankka bog'liq bo'lmagan boshqa holatlar.

V. SOVRIN JAMG'ARMASI VA SOLIQQA TORTISH

34. Aksiyaning sovrin jamg'armasining umumiy qiymati 619 000 000 (olti yuz o'n to'qqiz million) so'mni tashkil etadi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- “Omadli Start” bosqichining pul mukofotlari: har biri 2 000 000 so'mdan bo'lgan 16 ta sovrin, jami 32 000 000 (o'ttiz ikki million) so'm;
- Haftalik sovrinlar: har biri 10 000 000 so'mdan bo'lgan 20 ta pul mukofoti va har biri 10 000 000 so'mlik 10 ta turistik sayohat sertifikatini, jami 300 000 000 (uch yuz million) so'm;
- Bosh sovrin: qiymati 267 000 000 (ikki yuz oltmish yetti million) so'm bo'lgan BYD YUAN UP DM-I110KM Flagship avtomobili.

35. Mazkur Aksiya doirasida Bank mijozlari tomonidan Sovrinlarni olish munosabati bilan yuzaga keladigan davlat budjetiga to'lanishi lozim bo'lgan barcha tegishli soliqlar va majburiy to'lovlarni (shu jumladan, jismoniy shaxslarning daromad solig'ini) hisoblash va to'lash Bank xarajatlari hisobidan amalga oshiriladi.

VI. SOVRINLARNI OLISH TARTIBI VA MUDDATLARI, KIBERXAVFSIZLIK

36. Pul mukofotlari tegishli g'oliblar nomiga “Asakabank” AJ tomonidan emissiya qilingan amaldagi Mastercard kartalariga tegishli yutuqli o'yin o'tkazilgan sanadan boshlab 40 (qirq) bank ish kuni ichida o'tkaziladi. Sovrinning o'tkazilganligi to'g'risida g'olib Asakabank mobil ilovasidagi himoyalangan aloqa kanallari (PUSH/SMS-xabarnoma) orqali xabardor qilinadi.

37. Naqd pulsiz sovrinlar (turistik sayohat sertifikatlar va Bosh sovrin – avtomobil) Bankning bosh ofisida yoki Bank tanloviga ko‘ra belgilangan Bank xizmatlari markazlarida G‘oliblar rasman e‘lon qilingan paytdan boshlab 40 (qirq) kalendar kuni ichida topshiriladi.

38. Sovrinlarni olish uchun G‘olib pasportining (yoki ID-kartasining) asl nusxasini taqdim etishi, Mastercard kartasining faol holatini tasdiqlashi va “Asakabank” AJ Komplayens-nazorat departamentining Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish (POD/FT/FROMU) to‘g‘risidagi qonunchilik talablari asosida komplayens tekshiruvdan o‘tishi shart.

39. Antifrod va xavfsizlik: O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, agar Bankda ishtirokchining mobil ilovadagi akkaunti buzilganligi yoki uchinchi shaxslarning firibgarlik harakatlari (frod-insident) natijasida operatsiyalar amalga oshirilganligi haqida asosli shubhalar mavjud bo‘lsa, Bank xizmat tekshiruvi yakunlangunga qadar sovrinni topshirishni to‘xtatib turish huquqiga ega.

40. Bank G‘oliblardan sovrinlarni berish uchun hech qachon OTP-kodlar, CVV/CVC-kodlar yoki ilova parollarini so‘ramaydi.

41. Agar sovrinni topshirishni tegishli ravishda rasmiylashtirish uchun G‘olib zarur hujjatlarni (shu jumladan sovrinni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi, shaxsga doir ma‘lumotlarni qayta ishlashga rozilik va boshqalarni) imzolashdan bosh tortsa, G‘olibning Sovrinni olish huquqi bekor qilinadi. Talab qilinmagan Sovrin mazkur Ommaviy ofertada belgilangan tartibda qayta o‘ynaladi.

42. Agar Tashkilotchi G‘olib bilan bog‘lana olmasa yoki G‘olib Tashkilotchi tomonidan birinchi marta murojaat qilingan kundan boshlab 30 (o‘ttiz) kalendar kuni ichida Tashkilotchi bilan aloqa qilmasa, G‘olibning sovrinni olish huquqi bekor qilinadi va tegishli sovrin mazkur Ommaviy ofertada belgilangan tartibda qayta o‘ynaladi.

VII. AXBOROT BERISH TARTIBI VA BOSHQA SHARTLAR

43. Aksiya qoidalar, Aksiyani o‘tkazish muddatlari, ishtirok etish shartlari, mazkur Ommaviy ofertaga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar, shuningdek yutuqli o‘yin natijalari Bankning rasmiy veb-saytida (www.asakabank.uz) va “Asakabank” AJning mobil ilovasida O‘zbekiston Respublikasining “Reklama

to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq ochiq foydalanish uchun joylashtiriladi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 3030-sonli nizomiga muvofiq, mazkur Ofertaga o'zgartirish va qo'shimchalar Bank tomonidan bir tomonlama tartibda kiritilishi mumkin, bunda tegishli ma'lumotlar o'zgarishlar kuchga kirishidan kamida 10 (o'n) kalendar kun oldin Bankning rasmiy veb-saytida va "Asakabank" AJning mobil ilovasida majburiy ravishda e'lon qilinadi.

44. Aksiya ishtirok etar ekan, G'oliblar O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq "Asakabank" AJ tomonidan quyidagi shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlashga rozilik bildiradilar: familiyasi, ismi, otasining ismi (mavjud bo'lsa), tug'ilgan sanasi (zarur bo'lganda), telefon raqami, shaxsni tasdiqlovchi hujjat rekvizitlari, bank kartasining niqoblangan raqami, foto va video tasvirlar, fikr-mulohazalar, shuningdek Aksiyaning o'tkazish uchun zarur bo'lgan boshqa shaxsga doir ma'lumotlar.

45. Aksiya ishtirok etar ekan, G'oliblar o'zlari ishtirokidagi reklama foto va videotasvirga olish ishlarini o'tkazishga, ularning ismlari, tasvirlari va fikr-mulohazalarini qo'shimcha haq to'lamagan holda Bank resurslarida e'lon qilishga so'zsiz rozilik bildiradilar.

46. Shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash faqat G'olibni identifikatsiya qilish, uning Aksiya shartlariga muvofiqligini tekshirish, yutuqli o'yinlarni tashkil etish va o'tkazish, Sovrinlarni rasmiylashtirish va topshirish, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablarini bajarish, shuningdek G'oliblar to'g'risidagi ma'lumotlarni rasmiy veb-saytda, mobil ilovada va Bankning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida mazkur Ommaviy ofertada nazarda tutilgan hajmda e'lon qilish maqsadlarida amalga oshiriladi.

47. Shaxsga doir ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan holatlar yoki Bankning Aksiyaning o'tkazish bo'yicha majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo'lgan hollar (shu jumladan qonuniy talabi asosida davlat organlariga) bundan mustasno, uchinchi shaxslarga berilmaydi.

48. Aksiya ishtirok etish sovrin olish kafolati hisoblanmaydi. Ishtirokchi tomonidan Aksiya shartlariga mos ravishda amalga oshirilgan operatsiyalar soni faqat yutuqli o'yin vaqtida ishtirokchining imkoniyatlari soniga ta'sir qiladi va g'alabani kafolatlamaydi. G'oliblar faqat Aksiya shartlarini bajargan ishtirokchilar orasidan tasodifiy tanlash yo'li bilan aniqlanadi. Bank

ishtirokchilarning Aksiyada ishtirok etish bilan bog‘liq xarajatlarini, shu jumladan bank kartalari orqali operatsiyalarni amalga oshirish xarajatlarini qoplashga majbur emas.

49. Texnik xatolar, axborot tizimlaridagi nosozliklar yoki ishtirokchilar ro‘yxatlarining noto‘g‘ri shakllantirilishi aniqlangan taqdirda Bank quyidagilarga haqli:

- natijalarni qo‘shimcha tekshirish;
- texnik xatoni tuzatish;
- g‘olibni qayta aniqlash.

Bunday harakatlar Bank tomonidan faqat Aksiyaning to‘g‘ri o‘tkazilishini va mijozlarning ishtirok etishi uchun teng shart-sharoitlarni ta‘minlash maqsadida amalga oshiriladi.

50. Xavfsizlik va firibgarlikdan himoya: Bank ishtirokchilar va g‘oliblardan quyidagilarni so‘ramaydi:

- bank kartasining PIN-kodi;
- CVV/CVC-kod;
- mobil ilova paroli;
- operatsiyalarni tasdiqlash uchun bir martalik SMS-kodlar;
- Bank xabarlaridagi tasdiqlash kodlari.

Sovrinni olish uchun yuqoridagi ma‘lumotlarni taqdim etish talab qilinmaydi. Uchinchi shaxslardan shubhali murojaatlar kelib tushgan taqdirda, ishtirokchiga rasmiy aloqa kanallari orqali darhol Bankka murojaat qilish tavsiya etiladi.

51. G‘oliblar Sovrinni sovrin summasiga biror tovar sotib olish orqali almashtirishni yoki Sovrinning pul ekvivalentini talab qilishni, Sovrinni boshqa, qiymati yuqori yoki past bo‘lgan Sovringa qo‘shimcha to‘lov yoki qiymatdagi farqni qaytarish sharti bilan almashtirishni talab qilish huquqiga ega emas. Agar Sovrin uchinchi shaxs tomonidan taqdim etilsa yoki uchinchi tashkilot xizmatlarini olish uchun sertifikat ko‘rinishida bo‘lsa, Bank bunday tovar yoki xizmatlarning sifati, xususiyatlari, ulardan foydalanish tartibi yoki taqdim etish shartlari uchun javob bermaydi. Bank faqat rag‘batlantiruvchi aksiyaning Tashkilotchisi sifatida ishtirok etadi. Barcha naqd pulsiz Sovrinlar (Bosh sovrin – Avtomobil, shuningdek Turistik sertifikatlar/yo‘llanmalar) G‘oliblarga “qanday bo‘lsa, shunday” (as is) holatda topshiriladi. Bank avtomobil ishlab chiqaruvchisi,

sotuvchisi yoki turistik xizmatlar ijrochisi hisoblanmaydi va ularga nisbatan hech qanday mustaqil kafolat bermaydi. Bank Sovrinning butun foydalanish muddati davomida sovrin egasining sogʻligʻi (hayoti), shuningdek uchinchi shaxslarning mol-mulki, sogʻligʻi yoki hayotiga yetkazilgan har qanday zarar uchun hech qanday javobgarlikni oʻz zimmasiga olmaydi.

52. Aksiyani oʻtkazish va mazkur Oferta shartlarini bajarish doirasida yuzaga keladigan barcha nizolar va kelishmovchiliklar muzokaralar yoʻli bilan majburiy sudgacha hal etilishi lozim (daʼvo tartibida koʻrib chiqish muddati – 15 kun). Kelishuvga erishishning imkoni boʻlmagan taqdirda, nizolar Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi protsessual qonunchiligiga muvofiq javobgarning joylashgan joyidagi sud koʻrib chiqishiga topshiriladi.

53. Aksiya qoidolari, Aksiyani oʻtkazish muddatlari, ishtirok etish shartlari, mazkur Ommaviy ofertaga kiritilgan oʻzgartirish va qoʻshimchalar, shuningdek yutuqli oʻyin natijalari Bankning rasmiy veb-saytida (www.asakabank.uz) va “Asakabank” AJning mobil ilovasida ochiq foydalanish uchun joylashtiriladi. Mazkur Ommaviy ofertaga kiritilgan oʻzgartirish va qoʻshimchalar kuchga kirishidan kamida 10 (oʻn) kalendar kun oldin eʼlon qilinadi. Bank ishtirokchining Aksiyada ishtirok etishi bilan bogʻliq yuzaga kelishi mumkin boʻlgan zararlar, xarajatlar va boshqa har qanday xarajatlarni qoplamaydi yoki kompensatsiya qilmaydi.